



MAMLAKATIMIZDA DUAL TA'LIM TIZIMINI QO'LLASHNING MOHIYATI

Mo'minova Shohida Izzatillayevna
Abdukarimova Araylim Muxash qizi
Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani 1-son kasb hunar maktabi
Ishlab chiqarish ta'limguzalar

Annotatsiya: *Ta'limguzalarini yangilash va ta'limguzalarini oshirishning muhim konseptual qoidalardan biri sifatida kasb-hunar maktabida professional mutaxassis tayyorlashga kompetentsiyaga asoslangan yondashuv e'lon qilingan. Ushbu ta'limguzalarda dual ta'limguzalari alohida o'ringa ega. Ushbu maqolada yurtimizda dual ta'limguzalarda qo'llashning mohiyati haqida mulohaza yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *dual ta'limguzalari, professional ta'limguzalari, islohot, ta'limguzalari, kasb, korxonalar, o'qish, tashkilot, iqtisodiyot, shartnoma.*

Bugun professional ta'limguzalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning istiqboli, samara va natijasi ish beruvchi va ta'limguzalarini o'zaro hamkorligiga, ishlab chiqarish va o'quv jarayonining o'zviyligi, milliy malaka tizimining muvaffaqiyatli joriy etilishi, mukammal professional standart va sifatli ta'limguzalari bog'liq. Bu tizimning muvaffaqiyatli joriy etilishi yaqin istisboldagi taraqqiyotimiz jadallahshuvini ham belgilaydi.

Mehnat bozoridagi ehtiyojlar, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun raqobatbardosh kadrlarni professional ta'limguzalari bosqichlarini joriy qilish orqali tayyorlash hamda turli yoshdagi shaxslarning «Hayot davomida ta'limguzalari o'qishga bo'lgan talablarini qondirish professional ta'limguzalarning maqsadi hisoblanadi.

O'qitishning dual tizimni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Professional ta'limguzalari muassasalarini qayta ixtisoslashtirish va tayyorlanadigan kasblar va mutaxassisliklar ro'yxati Vazirligini tomonidan mehnat bozorining kadrlarga bo'lgan ehtiyojidan va tarmoq vazirliklari, idoralar, xo'jalik birlashmalari, yirik korxonalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, shuningdek kadrlar buyurtmachilarinin takliflaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Professional ta'limguzalari muassasalariga o'quvchilar qabul ko'rsatkichlari va o'quvchilarini qabul qilish tartibi, agar qonun hujjatlarida boshqacha holatlar ko'zda tutilmagan bo'lsa, Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagisi qarori bilan Professional ta'limguzalarda dual ta'limguzalari tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Nizom asosida bugun joylarda ushbu ta'limguzalari qo'llanilib kelinmoqda. Xo'sh, aslida dual ta'limguzalardan qanday tizim? Ushbu ta'limguzalarda batafsil tanishib o'tamiz.

Hammamizga ma'lum, iqtisodiyotni rivojlanishida o'rta bo'g'in kadrlarining o'rnini alohida hisoblanadi. Ishlab chiqarish, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida ishchi kasb va mutaxassisliklarga bo'lgan ehtiyoj juda yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi.

An'anaviy ta'lim shaklida o'quvchi-talaba oliy yoki professional ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni ko'proq egallab, amaliyat qismini juda oz soatlarda korxona va tashkilotlarda o'taydi. Shuning uchun, rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimi o'rganilib, zamonaviy texnologiyalar va dastgohlarda o'qish bilan bir vaqtda korxona, tashkilotlarda ish faoliyatini olib borish imkoniyatini beruvchi dual ta'lim shakli O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritildi.

"Dual" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, biror narsaning ikki qismga taalluqliligi, ikkita narsani ifodalovchi, ikki qismdan iborat, degan ma'nolarni bildiradi.

Dual ta'lim – o'quvchi-talabaga ta'limni o'z yo'nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib borish imkoniyatini beruvchi tizimdir. Bunda yoshlar 2-3 kun ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni va 3-4 kun korxona va tashkilotlarda haqiqiy ish jarayonlarida amaliy ko'nikmalarni egallaydi.

Dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan o'quvchi-talaba korxona va tashkilotlarda ishga qabul qilinganda ularga korxona tomonidan ustoz biriktiriladi va oylik maoshi to'lanadi.

Bugungi kunda ushbu tizim Germaniya, Avstriya, Shvetsariya va Koreya Respublikasi kabi mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirishda juda katta o'ringa ega.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 15-moddasiga muvofiq, "Dual ta'lim" ta'lim olish shakllaridan biri sifatida kiritildi. Qonunga dual ta'lim bo'yicha alohida modda (17-modda) ham kiritilib, dual ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi ko'rsatib o'tildi.

Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi qarori bilan Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Bugungi kunda dual ta'limni yanada rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasini o'rgangan holda, qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha tegishli ishlar olib borilmoqda.

Ushbu tizimni joriy etishdan ko'zlangan maqsad iqtisodiyotning barcha sohalarida malakali va zamonaviy kasbiy ko'nikmalarga ega o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash hamda yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallahga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratishdan iborat. Bunda yoshlar ta'lim olish bilan birga haqiqiy ish joyida o'z kasbiy ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Hozirgi kunda dual ta'lim shakli professional ta'lim tizimida amalda yo'lga qo'yildi. 2021-2022 o'quv yilidan boshlab, maktabgacha ta'lim, temir yo'l va qurilish kabi sohalarda o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash maqsadida professional ta'lim muassasalariga dual ta'lim shakli bo'yicha 3 mingdan ortiq yoshlar o'qishga qabul qilindi.

2022-2023 o'quv yilida professional ta'lim muassasalariga 4,5 mingdan ortiq yoshlar dual ta'lim shaklida o'qishga qabul qilindi hamda yuqorida aytib o'tilgan sohalarga qo'shimcha ravishda axborot texnologiyalari, yengil sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish kabi sohalarda ham dual ta'lim shaklida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Bugungi kunda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib, 7,5 mingdan ortiq yoshlar respublikamizdagi professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim shaklida ta'lim olib, 1,5 mingga yaqin korxona va tashkilotlarda ish faoliyatini olib bormoqda.



2022-yil iyun oyida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida professional ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish va Germaniya tajribasi asosida dual ta'limni amaliyatga samarali joriy etish bo'yicha bir qator vazifalar belgilab berilgan edi. Biz bilamizki, Germaniya o'zining ta'lim tizimiga dual ta'limni bir necha yillar oldin joriy qilgan. Germaniyada dual ta'lim rivojlanishining asosiy omili qonunchilikda dual ta'lim ishtirokchilarining (korxona, o'quvchi, ta'lim muassasasi) vazifalari va majburiyatlarani aniq belgilab qo'yilgan.

Bugungi kunda Germaniyada 1,4 million yoshlar dual ta'lim shaklida ta'lim olishadi. Germaniyada har yili 500 ming o'quvchi dual ta'limda ishtirok etish uchun korxonalar bilan shartnomaga imzolashga erishadi va 74 foiz yoshlar o'qishni yakunlagandan so'ng ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi imzolashga erishadi. Korxona tomonidan o'quvchi(lar)ga malakali va maxsus sinovdan o'tgan hamda sertifikatga ega bo'lgan ustoz biriktiriladi.

Dual ta'limni tashkil etish va ish beruvchilarni jalb qilish Savdo sanoat palatasi va tarmoq savdo palatalari faoliyatining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Hattoki yoshlarni kasbga yo'naltirish va kasblar to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi uchun 7-sinfdan boshlab o'quvchilar korxonalarda yiliga 2-4 haftalik tanishuv (stajirovka) o'tashadi. Yoshlar o'zлari borgan korxona va tashkilotlar faoliyati bilan tanishib, kasblar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lgandan so'ng, o'zi qiziqish bildirgan kasb bo'yicha korxona va tashkilotlar bilan shartnomasi imzolaydi va dual ta'limda tahsil olish uchun ta'lim muassasasiga ushbu imzolangan shartnomasi bilan hujjalarni topshiradi.

Germaniyada dual ta'limda ishtirok etayotgan o'quvchilarga ish beruvchi tomonidan oyiga o'rtacha 930-1200 yevro oylik ish haqi to'lanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, dual ta'lim mamlakatimiz ta'lim tizimida yangi bo'lib, ushbu tizimni rivojlantirish bo'yicha bir qancha ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jumladan dual ta'limni rivojlantirish bo'yicha xorijiy mutaxassislar jalb qilinmoqda, mahalliy mutaxassislar Germaniya, Avstriya, Koreya va boshqa davlatlarga tajriba o'rganish maqsadida yuborilmoqda va dual ta'limni rivojlantirish konsepsiysi ustida ishlanmoqda. Shuningdek, xususiy sektorni dual ta'limga jalb qilish bo'yicha ham tegishli ishlar olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi qarori. 29.03.2021 y. 163-son.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi 2022-yil iyun oyida o'tkazilgan "Professional ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish va Germaniya tajribasi asosida dual ta'limni amaliyatga samarali joriy etish bo'yicha videoselektor yig'ilishi.
4. N.M.Egamberdieva, A.U. Axmadaliev, A.B.To'raev . Pedagogikaning taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalari modulli. T.: Iste'dod, 2016.